DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-91 Pages: 778-785

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ARABIC RHETORIC

Ikrom Y. Bultakov
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: bultakov68@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

Xamidjon B. Raximov
Master's student in Arabic Linguistics
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: xamid_666@mail.ru
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: History of Arabic literature, rhetoric, science of eloquence, Al Bayan va-t-Tabyin, Ilm al-Badi', Ilm al-Bayan, Ilm al-Ma'ani, al-Jahiz, Ibnu-l-Mu'tazz, Askariy, Sakkokiy.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: The article highlights the research conducted by prominent medieval linguists such as Abu Usman al-Jahiz, Qudama ibn Ja'far, Abdullah ibn Mu'tazz, Askariy, Ibn Rashiq, and others on the science of eloquence, their proposed ideas, and their contributions to the development of this field.

ARAB BALOG`AT ILMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Ikrom Y. Bultakov
Dotsent, filologiya fanlari nomzodi,
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: bultakov68@gmail.com

Xamidjon B. Raximov
Lingvistika (arab tili) magistranti
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: xamid_666@mail.ru

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar arab adabiyotining tarixi, notiqlik san`ati, balog`at ilmi, Al bayan va-t-tabyin, ilmu-l-badi', ilmu-l-bayan, ilmu-l-ma`aniy, Johiz, Ibnu-l-Mu'tazz, Askariy, Sakkokiy.

Annotatsiya: Maqolada o`rta asr tilshunosligining yirik namoyondalari bo`lmish Abu Usmon Johiz, Qudama ibn Ja'far, Abdulloh ibnu-l-Mu'tazz, Askariy, ibn Rashiq kabilarning balog`at ilmi ustida olib borgan izlanishlari, ilgari surgan fiklari hamda bu soha rivojida qo`shgan hissalari yoritib berilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ АРАБСКОЙ НАУКИ О КРАНОРЕЧИИ

Икром Ю. Бултаков
Доцент, кандидат филологических наук
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: bultakov68@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

Хамиджон Б. Рахимов
Магистрант лингвистики арабского языка
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: xamid_666@mail.ru
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: История арабской литературы, искусство риторики, наука о красноречии, Аль-Баян ва ат-Табийн, Илм аль-Бади', Илм аль-Баян, Илм аль-Ма'ани, Джахиз, Ибн аль-Му'тазз, Аскарий, Саккокий.

Аннотация: В статье освещены исследования, проведенные крупными представителями средневековой языкознании, такими как Абу Усмон Джахиз, Кудама ибн Джафар, Абдуллах ибн Мутазз, Аскарий, Ибн Рашик и другими, их предложенные идеи и вклад в развитие науки о красноречии.

Kirish. O`rta asr arab tilshunoslarining balog`at ilmiga oid saqlanib qolgan asarlarida, islomdan oldingi va islomning ilk davridagi jozibador tajribalari umumlashtirilgan va arablarning notiqlik san'ati haqidagi nazariyalari bayon etilgan. Islomdan oldin balog`at ilmiga katta ahamiyat berilganligi, Qur'oni karimning go'zalligi va uning ta'sirini tushunishga bo'lgan ehtiyoj esa go'zal nutq qoidalarining bosqichma-bosqich tizimlashtirishga olib kelgan.

Notiqlik mahoratini o'rgatish zarurati arab balog`asi bo'yicha kitob va ko`rsatmalar yozilishiga sabab bo'ldi, bu asarlarga qadimgi yunon va rim olimlarining asarlari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu masala bilan yaqindan shug‘ullangan birinchi mualliflardan biri bu Abu Usmon Johizdir. Uning «Al - bayon va-t-tabyin» asarida arab balog`at ilmining asosiy tamoyillari bayon etilgan.

Shuningdek, Ishoq ibn Ibrohim ibn Vahbni va uning «Kitab al-burhan fi-l-vujuh al-bayan» («Tushuntirish kitobi yoki turli fikrni ifodalash usullari haqida»), Ibnu-l-Mudabbirning «Risolatu-l-azro», Rummoniyning «Kitabun nukat fi i’jazil Qur’an» («Qur'onning takrorlanmasligi haqidagi o‘tkir fikrlar kitobi») asarida al – bayan nazariyasi haqida uchratamiz. Mazkur asarlarni o ‘rganish natijasida ularning balog`at ilmi ustida olib borgan izlanishlari, ilgari surgan fiklari hamda bu soha rivojida qo`shgan hissalari aniqlandi.

Natijalar. Shuni ta'kidlash kerakki, Johizning ushbu kitobi arab balog`ati terminologiyasini ishlab chiqishda muhim hissa qo‘shgan. U birinchi bo‘lib «Al bayon» atamasini yashirin ma'lumotni jonli so‘z orqali tushuntirish uchun ishlatgan. “«bayon» - bu fikrni yashirgan pardani ochib, ongdagi yashirin narsani yoritib beradigan har qanday so‘zning umumiy nomi bo‘lib, tinglovchi uning yordami ila so`zning haqiqiy ma'nosini anglaydi. Gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatning mohiyati va maqsadi bu; bir tomondan o‘zaro tushunishga erishish, ikkinchi tomondan esa, fikrni tinglovchilarga yetkazishdir va bu orqali erishiladigan o‘zaro tushunish va fikrni yetkazish vositasi bu “bayon” dir” degan.(Al-Jahiz, 1998, p.200.)

Ushbu ta'rifdan shuni anglash mumkinki, Johizda "bayon" so'zi ko'p ma'nolarga ega bo'lib, turli ma'noviy jihatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek ta'rifning muhim jihatlaridan yana biri bu gapiruvchi aytmoqchi bo‘lgan nutq mavzusini tushunishdir, ya'ni nutqning mavzusi gapiruvchi uchun aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Bu tushunchaning boshqa bir xususiyati esa, nutq mavzusini tinglovchiga to‘g‘ri va to‘liq yetkazishdir. Johizga ko‘ra, bayon grammatik jihatdan aniqlikni va barcha tasviriy san'at vositalarining barqarorligini, talaffuzning osonligini, mantiqiy qat'iyatni, mukammallikni talab qiladi.

Johiz ko`p ahamiyat qaratgan jihatlardan yana biri bu notiqning tinglovchilar hissiyotlariga ta'sir qila bilish qobiliyatidir. Odamlar o‘z xatti-harakatlarida ko‘proq qonun va qoidalarga qaraganda, hissiyotlarga ko‘proq tayanishadi degan ishonchdan kelib chiqib, Johiz notiqlik san'ati asosida inson ruhini, ya'ni psixologiyani bilish kerak deb hisoblagan: «Agar fikr xolis bo‘lsa va so‘z tushunarli bo‘lsa, unda na uyg‘unlik buzilishi, na sun'iylik bo‘lsa, bu so‘z insonga ruhiy jihatdan shu darajada ta'sir qiladiki, bamisoli unumli yerga yog`gan yomg‘ir kabi. Agar so‘z barcha zikr qilingan sifatlarga ega bo‘lsa va uni aytuvchi shaxs uni to‘g‘ri tarzda aytsa, Alloh unga shunday muvaffaqiyat beradiki, uning so‘zi yuksak ta'sirga ega bo‘ladi, hatto qudratli hukmdorlarning qalblari ham uning so‘zlarini ulug‘vorligini tan olishadi, jaholatdan xoli bo‘lgan

odamlar esa uni anglay olishadi agar so‘z samimiy aytilgan bo‘lsa, u qalbga kiradi. Agar so‘z til uchidangina chiqqan bo‘lsa, u quloqlardan nariga o`tmaydi».(Al-Jahiz, 1998, p.222.)

Johizning fikricha, hissiyotdan yiroq, sust gaplar tinglovchilarning qalbida ta'sir qoldirmaydi. Yaxshi notiqning nutqi, ishonch, ehtiros, o‘z ishining to‘g‘riligiga bo‘lgan qat'iy e'tiqod, hissiyot va ilhom bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak.

Johiz adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni katta ahamiyat bilan ko‘rib chiqadi va to‘g‘ri nutq va grammatika qoidalariga rioya qilishni ta`kidlaydi. U notiqlik san'ati haqida gapirar ekan, notiqni g`ayrioddiy so‘z birikmalarini qo`llashdan ogohlantiradi, nutqni talaffuz qilish, ovoz va tana bilan ishlash haqida notiqga bir qator foydali maslahatlar beradi (masalan, xiralashgan ovozda gapirmaslik, nutq davomida yo‘talmaslik, yaxshi ovoz toniga ega bo‘lish va nutqni to‘g‘ri qurish va h.k.).

Johiz o‘zining asarida balog`iy mazmun va shakl to‘g‘risidagi o‘z qarashlarini bayon etadi. Uning fikricha, so‘zlashuv san'ati – bu so‘zlarning (alfaz) yig‘indisi bo‘lib u ma'nolar (ma'ani) bilan bog‘langan bo`lib, ular bir-biriga mos kelishi kerak. Fikrni ifodalash uchun so‘zlarni to`g`ri tanlash, uni aniqroq va foydaliroq qiladi. Bundan tashqari, fikrni mukammal so‘zlar bilan ifodalash uni aslidan ko‘ra yanada muhimroq, chiroyliroq qilishi mumkin, xuddi chiroyli kiyimlar qizni yanada chiroyliroq qilgani kabi.

«Al Bayan» nazariyasi, fikrni ifodalashning eng umumiy usuli sifatida, ba'zi o'zgartirishlar bilan Johizning zamondoshlarida ham, shuningdek, undan keyingi kelgan olimlarda ham namoyon bo'ldi.

Ulardan Ishoq ibn Ibrohim ibn Vahbni va uning «Kitab al-burhan fi-l-vujuh al-bayan» («Tushuntirish kitobi yoki turli fikrni ifodalash usullari haqida») asarini (946-yilda yozilgan) ajratib ko‘rsatish mumkin. Bir necha yillar o‘tib, biz bu nazariyani Ibnu-l-Mudabbir (vafoti 1082-yil)ning «Risolatu-l-azro» asarida, shuningdek, Rummoniy (vafoti 1094-yil)ning «Kitabun nukat fi i’jazil Qur’an» («Qur'onning takrorlanmasligi haqidagi o‘tkir fikrlar kitobi») asarida uchratamiz. Keyingi asrlar davomida «bayan» atamasi, dastlab fasohatni anglatgan bo‘lsa, keyinchalik ba'zi o‘zgarishlarga uchradi.

IX asr oxirida «yangi» uslub (badi’) nazariyasi paydo bo‘ldi, ammo uning amaliy rivojlanishi asosan IX asrning ikkinchi yarmidan, aniqrog‘i, VIII asrning oxirgi choragidan boshlab to‘liq sur’atda amalga oshgan. Ushbu nazariyaning yuzaga kelishiga, ma'lum darajada, Aristotelning yunon fasohati sabab bo‘lgan va u IX asrning ikkinchi yarmida arab tiliga tarjima qilina boshlangan. Shu davrdagi arab madaniyati, forslar va boshqa zabt etilgan xalqlarning ta'siri qarshisida qolganligi balog`at sohasida ham aks etgan edi. Tadqiqotchilar qadimgi arab she'riyatida va Qur'onda yunon fasohasida mavjud bo‘lgan figuralar va tropalarni qidira boshladilar. Arab olimlari “badi’” ilmi arablar uchun yangi emasligini, uning elementlari

islomdan oldingi she'riyat va Qur'onning nasriy qismida mavjudligini isbotlashga harakat qildilar. Ular bu elementlarni ajratib, ularga ta'riflar berishdi.

«Badi'» so'zi dastlab «go'zal, yangi va kam uchraydigan» degan ma'noni anglatgan va Qur'on va she'riyatdagi nafis ifodalarga ta'rif berish uchun ishlatilgan. IX asr oxirida arab olimlari turli tropalarga terminologik nomlar berib, ularning har doim ham to'liq va aniq ta'riflanmaganini ta'kidlaydilar.

Poetik trop va figuralar nazariyasi – "ilmu-l-badi'" birinchi marta mashhur shoir va tilshunos Ibnu-l-Mu`tazz (861-908) tomonidan ishlab chiqilgan. Uning «Kitabu-l-badi'» («Badi' kitobi»), 887-888 yillarda yozilgan birinchi asl sheriy asar hisoblanadi. Unda Ibnu-l-Mu`tazz arab san'ati nutqining figuralari va tropalariga umumiy tavsif berishga uringan. U 17 ta poetik uslub kategoriyasini ko'rib chiqib, ularning ta'riflarini birma-bir taklif etadi va badi' Qur'onda, payg'ambar so'zlarida, uning sahobalari va arab badaviylarning nutqlarida, qadimgi shoirlarning she'rlarida uchraydi deb ta'kidlaydi. Shunday qilib, u balog`at asosan to'liq arab an'anasi ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Ibnu-l-Mu`tazzning yosh zamondoshi, Qudama ibn Ja'far (922-948 yillarda vafot etgan) ning boshqa bir asari «Naqdu-sh-shi'r» («She'riyatni tanqid qilish») "badi'"ni nasr va she'riyatda kengroq ta'riflaydi. Qudamaning asarida Aristotelning ta'siri seziladi. Qudama o'z asarida she'riyatni ta'riflaydi va she'riyatdagi mazmun va shaklning 4 asosiy elementini tahlil qiladi: lafz, ma'no, rifm va o'lcham.

X asrda ko'plab sheriyat va balog`at haqidagi asarlar paydo bo'ldi, lekin bizgacha faqat Askariyning 1004 yilda yozgan «Kitabu-s-sina'atayn al-kitaba va-sh-shi'r» («Ikki hunar kitobi: yozuv (nasr) va she'riyat») asari yetib kelgan. Aslida, bu asar avvalgi mualliflarning ushbu sohadagi fikrlarini jamlagan asar bo'lib, Askariy she'riyat va balog`atni birlashtirib, ularning har biriga teng ravishda murojaat qiladi. Askariy tomonidan boshlangan bu yo'nalish, arab sharqida qabul qilingan va keyingi shu kabi asarlarda keng tarqalgan, masalan, Ibnu-l-Asiyrning mashhur «Al-masalus-s-sair fi adabi-l-katibi va-sh-sha'ir» asari.

Ibnu-l-Asiyr «Ilmu-l-bayan»ni balog`a ilmining alohida bo'limi sifatida qarab, o'z asarini uning fundamental qoidalari bilan kirishdan boshlaydi.

Asarining so'nggi ikkita qismida u «so'z san'ati» («As-sina'a al-lafziya») va «ma'no san'ati» («As-sina'a al-ma'naviya») ni ko'rib chiqadi. «Ilmu-l-bayan»ning obyekti tilning tozalik va to'g'riligi (fasaha) hamda so'zlar orqali maqsadga erishish (balag'a) hisoblanadi.

XI asrda arab sheriyatiga oid eng muhim asarlardan biri Ibn Roshiyqning (995-1000 yillarda tug'ilgan, 1063-1064 yillarda vafot etgan) «Kitabu-l-'umda fi sina'ati-sh-shi'ri va naqdihi» («She'riyat san'ati va uning tanqidi asoslari») asari bo'ldi. Ushbu asar sheriyat va uning tanqidiga oid eng keng qamrovli va yaxshi tizimlashtirilgan nazariyani o'z ichiga oladi, shu bilan

birga, o‘sha davrning sheriyatini ham ifodalaydi. Ibn Roshiyqning asarida mumtoz arab sheriyatida mazmun va shakl muammosiga katta e’tibor qaratilgan. Kitob o‘zining mohiyati bo‘yicha arab sheriyatiga oid barcha avvalgi asarlarning mukammal qisqacha xulosasini taqdim etadi.

Arab balog`atiga eng muhim hissa qo‘shgan buyuk arab olimlardan Abdulqohir Jurjoniy (1078 yilda vafot etgan) bo‘ldi. Jurjoniyning ijodiy merosidagi eng katta va muhim asarlardan «Dalailu-l-i’jaz» va «Asroru-l-balog`a» bo‘lib, ularning har biri arab tili balog`a sohasidagi tadqiqotlarda inqilob yasagan desak ham mubolag`a bo`lmaydi. Ushbu kitoblarda Jurjoniy balog`aning turli jihatlarini til, shakl va mazmun nuqtai nazaridan ko‘rib chiqib, ularni har tomonlama chuqur tahlil qiladi. Jurjoniy «Dalailu-l-i’jaz» asarida arab tilining grammatik vositalarini o‘rganish orqali «ilmu-l-ma'ani» deb ataladigan balog`at ilmining yangi yo`nalishini kashf qiladi, ushbu fan arab balog`asining bir bo‘lagi sifatida tasniflanadi. Uning «Asroru-l-balog`a» asari arab balog`asining uchta bo‘limini shakllantirishga asos bo‘ldi. Jurjoniy asarlarida lafz va ma’no, ikki o‘zaro bog‘liq va to‘g‘ri tartiblangan tuzilmalar sifatida taqdim etiladi.

Balog`at ilmining asl mohiyatini aniqlaydigan qisqa va aniq formulasini, biz uning "Asroru-l-balog`a" asaridan topamiz: "Nutqning ma'noga to‘liq mos kelishi va bu moslikni so‘zlar kombinatsiyasi bilan ta'minlash" yoki “nutqning vaziyat (holat) talablariga mos kelishi” deya keltirgan.

Abdulqohir Jurjoniydan so‘ng Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy o‘zining “Miftahu-l-ulum” asarida o‘zigacha bayon etilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi.

XII asrga kelib Yusuf Sakkokiy «Miftahu-l-ulum» asarida balog'at ilmiga izchil nazariya darajasiga ko'tarildi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu olim 1160/555 h. yilda Xorazmda tug'ilib, 1229/626 h. yilda Farg'ona vodiysidagi qadimiy Olmalig' shahrida vafot etgan (31, 893–894). Yusuf Sakkokiy bir muddat Muhammad Xorazmshoh (1200–1219) saroyida Gurg'anjda xizmat qilgani, Mo'g'ullar istilosidan so'ng Chig'atoy ulusiga asos solgan Chingizxonning (v.e. 1227) o'g'li Chig'atoyxon huzurida Olmalig' shahrida ijod qilgani haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Abdulqohir Jurjoniydan so'ng Yusuf Sakkokiy «Miftahu-l-ulum» asarida o'ziga xos bayon etilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi.

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, Yusuf Sakkokiy «Miftahu-l-ulum» asariga til va adabiyot bilan chambarchas bog'liq barcha masalalarni kiritgan. Bular: sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), ma'oni va bayan, badi' (badiiy san'atlar), aruz, qofiya ilmlari.

Yusuf Sakkokiy o'z asarining «ma'ani va bayan ilmlari haqida» qismlarida unga qadar bo'lgan asarlarda tarqoq holatda bo'lgan va balog'atning asosini tashkil qiluvchi bo'limlarni tartib bilan keltiradi va ularni «ilmu-l-ma'ani», «ilmu-l-bayan» deb nomlaydi. Birinchi fasl – ma'ani ilmi beshta bobga ajratilgan va ular «Birinchi bob istak haqida», «Ikkinchi bob so'roq haqida»,

«Uchinchi bob buyruq haqida», «To'rtinchi bob inkor haqida» va «Beshinchi bob nido (undalma) haqida» deb atalgan.

Ikkinchi fasl – bayan ilmi tarkibiga tashbih, majaz, isti'ora, kinoya masalalari kiritilgan.

So'ngra Yusuf Sakkokiy tilning latif va jozibali bo'lishiga xizmat qiluvchi badiiy vositalar – ma'noviy san'at turlari tiboq, muqobala, mushokala, maro'atu-n-nazir, muzovaja, laff va nashr, jam', tafriq, taqsim, al-jam' ma'a-tafriq, al-jam' ma'a-taqsim, iyhom, tavjih, iltofot, lafziy san'atlardan tajnis, ishtiqoq, raddul-ajj ila-s-sadr, qalb, sa'j, tarsi' turlari haqida bahs yuritadi, harflarning shakllari bilan bog'liq san'atlarni ham ta'kidlab o'tadi.

Aytilganidek, Sakkokiydan keyingi olimlar bu asardan keyin balog'at ilmiga oid hech kim mustaqil asar yaratmaganini va olimlar Sakkokiyning fikrlariga ergashganlarini ta'kidlaydilar.

M.G. Kuliyevaning fikricha, Yusuf Sakkokiy mazkur asari bilan balog'at ilmiga «mantiqiy grammatik yo'nalish»ni olib o'tgan.

Karl Brokkelman «Tarixul adabil arabiy» asarida «Miftahul ulum»ning uchinchi qismiga sharh yozgan olimlarning nomlarini sanab o'tadi.

Bular: Ali ibn Umar al-Kotibiy (/1276/675 h.); Qutbiddin Mahmud ibn Mas'ud ibn Muslih ash-Shiraziy (/1310/710 h.); Ali ibn Muhammad ibn Diqqon Ali ibn Abi Bakr ibn Ali an-Nasafiy (1318/718 h.); Yahyo ibn Ahmad al-Koshiy (1349/750 h.); Sa'd Sulfon Shoh (1382/784 h. dan oldin); Sa'duddin Mas'ud ibn Umar at-Taftazaniy (v.e. 1389/791 h.).

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida «Miftahu-l-ulum»ning bittagina qo'lyozmasi 7843/IV raqami ostida saqlanadi.

Bu qo'lyozma 1813 yilda Muhammad Ashur ibn Qurbon Muhammadiy Kulobiy tomonidan ko'chirilgan. Matn xunuk nasta'liq xatida qora siyoh bilan yozilgan. Qo'lyozma 15X25 o'lchamda 163 varaqdan iborat, asarning boshlanish qismi yo'qolgan.

Jurjoniy va Sakkokiy asarlarining qisqacha mundarijasidan ma'lum bo'ldiki, birinchi asar o'zidan oldingilarini ko'p jihatdan takomillashtirgan va o'z davrida ma'lum bo'lgan balog'at masalalarini bir asarga jamlay olgan, ularni tasniflagan. Jurjoniy bu faoliyati bilan balog'at ilmiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan (20). «Asroru-l-balog`a» va «Dala'ilu-l-i’jaz»dan keyin yaratilgan «Miftahu-l-ulum» asari balog'at ilmiga tarkib jihatdan to'ldirilganligi, tasnifning chuqur ilmiy asosga ega ekanligi bilan oldingilaridan tubdan farq qiladi va bu ilmning o'sha davrda takomillashganidan darak beradi. Yusuf Sakkokiyning bu asari hanuzgacha balog'at ilmining shoh asari bo'lib kelmoqda.

Sakkokiy o‘z asarining “Balog‘at ilmi”ga doir uchinchi bo‘limida dastlab “fasohat” va “balog‘at” tushunchalarini tartib bilan izohlab beradi. So‘ngra ungacha bo‘lgan asarlarda tarqoq holda bo‘lgan va balog‘at ilmining asosini tashkil qiluvchi bo‘limlarni tartib bilan keltiradi va ularni “ilmu-l-ma’aniy”, “ilmul bayan” va “ilmu-l-badi’” deb nomlaydi.

Xulosa. Ma'lumki, balog'at ilmini tarkib va tartib jihatdan bir asarga jamlanib, ilmiy jihatdan yetuk darajaga kelishi, dastlab Jurjoniy, so'ngra Sakkokiyning benazir mehnatlari samarasidir. Sakkokiydan keyingi olimlarning barchasi uning qoidalarga asoslanganlar.

Shunday asarlar qatoriga "Miftahu-l-ulum"ning balog'at ilmiga doir qismiga damashqlik xatib Jaloluddin Muhammad ibn Muhammad Abdurrahmon Qazviniy tomonidan (v.e. 739/1339) yozilgan "Talxisu-l-Miftoh" asarini, Mas'ud ibn Umar Taftazoniy (v. e. 792/1390) ning "Sharxu Talxisi-l-Miftah" deb nomlanuvchi sharhini kiritish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Al - Jahiz, Abu Uthman Amr ibn Bahr. (1998). The book of eloquence and demonstration Kitab al-Bayan wa-l-Tabyin. – Beirut: Dar al-kuttab al -'arabiy. – 222 p. (in arabic)
2. Avniy, Hamid. (1953). The clear curriculum of Arabic. Al-minhaj al-vadih li-l-balag'a . – Beirut: Dar al-kuttab al-'arabiy. 156 p. (in Arabic)
3. Filshtinsky, I.M. (1985). History of Arabic Literature V – early X century. Istoriya arabskoy literatury V - nachalo X veka. – Moscow: Nauka. 225 p. (in Russian)
4. Islamov, Z. (2020). Codicological Analysis of Manuscripts of "Mukaddamatu-l Adab" of Mahmud Zamakhshari in the Funds of the World. The Light of Islam, 30-36 p. (in English)
5. Jurjaniy, Abd al-Qohir. (2002). The Secrets of Elusidation. Asraru-l-balag'a. – Beirut: Dar al-kuttab al-'arabiy. 255 p. (in Arabic)
6. Rustamiy, S. (2016). Linguistic and Literary Aspects of "Esasu-l-Belaga" and "Divan-u Lugat-it-Türk". "Esasu-l-belaga" ve "Divan-u lugat-it-türk" eserlerinin dil bilimi ve belagat bilimiyle ilgili yönleri.// Electronic Turkish Studies, Volume 11, Issue 20. p. 503-522. (in Turkish)
7. Rustamiy, S., Nasirova, M. & Sagdullaeva, D. (2020). Scientific and theoretical content of the science of balāğat. // Journal of Critical Reviews, p. 132-137. (in English)